O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA
ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

70

Andijon mashinasozlik instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi professori, iqtisod fanlari doktori Qiyomiddin Muftaydinovning **70 yillik** yubileyiga bag‘ishlangan

# “ERKIN BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY ETISH HAMDA SOG’LOM RAQOBAT MUHITINI YARATISH ORQALI HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”

mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman konferensiya **materiallari**

2023-yil 4-mart

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI VA**
**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI**

# “ERKIN BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY ETISH HAMDA SOG’LOM RAQOBAT MUHITINI YARATISH ORQALI HUDUDLARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman

**ILMIY MAQOLALAR VA TEZISLAR TO’PLAMI**
4 mart 2023 yil

МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ И
АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

**СБОРНИК НАУЧНЫХ СТАТЕЙ И ТЕЗИСЫ**
Республиканская научно-практическая конференция на тему
**«ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В РЕГИОНАХ ПУТЕМ РЕАЛИЗАЦИИ МЕХАНИЗМОВ СВОБОДНОГО РЫНКА И СОЗДАНИЯ ЗДОРОВОЙ КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЫ»**
4 марта 2023 года

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
ANDIJAN STATE UNIVERSITY AND
ANDIJAN MACHINE-BUILDING INSTITUTE

**COLLECTION OF SCIENTIFIC ARTICLES AND ABSTRACTS**
Republican scientific and practical conference on the topic
"PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP IN THE REGIONS BY IMPLEMENTING THE MECHANISMS OF A FREE MARKET AND CREATING A HEALTHY COMPETITIVE ENVIRONMENT"
March 4, 2023

**ANDIJON – 2023**

**ББК:97456(575)-МК5.03**

**УДК:33842.451.571**

"**Erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sog'lom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari**" mavzusida respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman ilmiy maqolalar va tezislar to'plami. – Andijon.: AndMI, 2023. 1080 b.

**Ma'sul muharrir:** i.f.d., professor I.Yu.Umarov

**Tahrir hay'ati:** i.f.d., v.b. prof. U.A.Madraximov, i.f.n., dots. G.A.Zufarova, i.f.n., dots. U.I.Maraimova, i.f.f.d.(PhD) D.X.Sarimsakov, i.f.n., dots. Z.A.Isroilov, i.f.n., dots. (PhD) M.A. Axunov, i.f.f.d.(PhD) M.A.Karimov, katta o'qituvchilar: M.G'.Abdullaev, Z. Teshaboyeva, G.Satiqulova

**Kompyuter va dizayner boyicha ma'sullar:** S.A.Mirzaev, O.O.Mo'ydinov.

**Taqrizchilar: i.f.d., prof. N.I.Asqarov, i.f.n. dots. C.M.A'zamov.**

Konferentsiya ilmiy maqolari va tezislari erkin bozor mexanizmlarini joriy etish hamda soglom raqobat muhitini yaratish orqali hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o'qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar va magistantlar va talabalar uchun mo'ljallangan.

*Mazkur to'plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlar sanasining to'g'riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o'zlari ma'suldirlar.*

**©Andijon davlat universiteti va Andijon mashinasozlik instituti, 2023 yil.**

## YALPI YIG’ILISHI MAЪRUZALARI


| | | |
|---|---|---|
| У. М.Турдиалиев | Сифатни бошқариш Ўзбекистон саноати тараққиётининг мухим омили | 20 |
| С.С.Гулямов, А.Т.Шермухамедов | Инновации в экономике Узбекистана | 22 |
| Н.М.Махмудов | “Яшил” иқтисодиёт асосида иқтисодий ўсишни таъминлаш муаммолари ва ечимлари | 26 |
| М.А.Икрамов | Тадбиркорлик фаолиятида маркетингнинг ўрни | 31 |
| А.М Қодиров | Минтақавий бошқаришни иқтисодий усулларини шакллантириш йўллари | 34 |
| И.Ю.Умаров | Озиқ-овқат саноатида тадбиркорликни ривожлантириш механизмларини иқтисодий моҳияти | 37 |


## 1-СЕКЦИЯ. BOZOR MEXANIZMLARINI JORIY ETISH MASALALARI


| | | |
|---|---|---|
| A.S.Asraqulov | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aholi bandligi mohiyati va bandlik tendensiyalari mazmunidagi o‘zgarishlar | 43 |
| З.А.Мирзаев | Эркин бозор шароитида божхона тўловларини ундириш ва улар бўйича имтиёз бериш механизмини такомиллаштириш | 48 |
| Ш.Б.Камолов | Эркин бозор механизмларининг жорий этилишида нодавлат нотижорат секторининг ўрни | 51 |
| A.Yunusov | Mehnat jamoalarini boshqarishda iqtisodiy usullardan foydalanish | 53 |
| S.A.Mirzayev | O‘zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning o‘rni | 57 |
| B.B.Sharipov | Qambag’allikning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati | 58 |
| А.А.Хаджимуратов | Инновацион тадбиркорлик ва эркин бозор механизмларини жорий этилиши | 60 |
| Ш.З.Мухитдинов | Ишлаб чиқариш корхоналарида рискларни бошқаришнинг методологиясининг назарий асослари | 64 |
| О.А. Арипов, Ш.Д. Довлатова | Кичик бизнес ва тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солишнинг айрим муаммолари | 68 |
| С.Х.Рустамова | Қарор қабул қилишда шахснинг фазилатлари | 72 |
| М.Қ.Муфтайдинов | Ўзбекистонда озиқ-овқат саноати корхоналари иқтисодий механизмини ривожлантиришнинг институционал асослари | 75 |
| А.Н.Камилова, М.Хакимов | Факторы, влияющие на производительность труда на промышленном предприятии | 78 |
| А.Қ.Исхаков | “Ўзкимёсаноат” акциядорлик жамияти фаолиятини самарадорлигини баҳолаш механизмини такомиллаштириш | 80 |
| V.G‘.Abduraxmonov, N.Sh.Umarova, Sh.S.To‘ychieva | Agrobiznesda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning ayrim jixatlari | 84 |
| B.A.Abdullayev, Sh.Sirojiddinov | Tizimli tahlil qilishning maqsad, natija va manbalar o‘rtasidagi bog‘liqlik | 88 |

| | | |
|---|---|---|
| | taraqqiyotida tutayotgan o'rni | |
| М.Салоҳиддинова | Иқтисодий маданиятни ривожлантиришда психологик ёндашув | 768 |
| Z.S.Umurzakova, N.M.Shukurova | Mehnat jamoasini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar | 769 |
| Q.B.Dilmonov | Buxoro viloyatida aholining ish bilan bandligini ta'minlashning hozirgi holati va tahlili | 771 |
| N.U.Qudratova | Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda mehnatni samarali tashkil qilishning asosiy yo'llari | 775 |
| N.R.Tojiboyeva | Paxta-to'qimachilik klasterlarida xodimlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari | 779 |
| А.С.Хожаев | Олий таълим муассаларининг тадбиркорлиги – ҳудуд иқтисодиётини ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида | 784 |
| Tashpulatov Aybek | Farg'ona viloyatida aholining bandligini oshirish strategiyasi | 787 |

**5-SEKSIYA. MAMLAKATNING IQTISODIY O'SISHINI TA'MINLASH DRAYVERLARI.**

| | | |
|---|---|---|
| Muratova Shohista Nimatullayevna | Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda bojxona organlarida xalqaro tajribadan foydalanish istiqbollari | 791 |
| Sultonova N.O. | Mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishda singapur tajribasi | 794 |
| Bahronova Shaxodat Baxshulloyevna | Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash | 796 |
| Ostonaqulov D.I. | Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash | 801 |
| Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna | Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda sanoat korxonalarini samarali boshqarish omillari | 805 |
| Axunova M.X., Ortig'aliyev B.K. | Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda taraqqiyot strategiyasining ahamiyati | 808 |
| Ozodbek Yo'ldoshev | Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash yo'nalishlari | 811 |
| Jaloliddinova M.A. | Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda mulk qiymatini baholashning o'rni | 814 |
| Rajabova Mohichehra Abduxoliqovna | Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda tijorat banklarining roli | 816 |
| Olimjonov O. A. | O'zbekistonning iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili | 819 |
| Абдуваҳобов Ш. | Барқарор иқтисодий ўсишга эришишда инновацион фаолиятни ривожлантириш зарурияти | 821 |
| М.М.Бустонов, И.М.Бустонов | Барқарор иқтисодий ўсишни таъминлаш | 823 |
| Оҳунов Ш.Б. | Мамлакатнинг макроиқтисодий барқарорлигини таъминлаш ва иқтисодий ўсишга эришиш | 826 |
| Ахмедиева Алия Тохтаровна | Мамлакатнинг инвестициявий жозибадорлиги ва унинг лизинг муносабатлари ривожланиши билан ўзаро боғлиқлиги | 829 |
| Бустонов М.М. | Иқтисодий ўсиш назарияси | 832 |

konversiya narxi yoki birlashtirilgan tashkilot aksiyadorlariga beriladigan mukofot qiymatini aniqlash;

– tashkilotni takomillashtirish rejasini ishlab chiqish va h.k.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi 843-sonli Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.

## MAMLAKATNING IQTISODIY O'SISHINI TA'MINLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI

**Rajabova Mohichehra Abduxoliqovna**

Buxoro davlat universiteti, Menejment va marketing kafedrasi o'qituvchisi

Keyingi yillarda Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatini amalga oshirishda asosiy e'tibor, qonunda belgilangan bosh maqsad-iqtisodiyotda narxlar barqarorligiga erishishga qaratiladi. Bunda, ushbu ushbu asosiy maqsadga uyg'un ravishda mamlakatimizda inklyuviy iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikka xizmat qiladigan pul-kredit sharoitlari ta'minlab boriladi. [1]

Tijorat banklari o'zing barcha operasiyalari va xizmatlarini xalqqa taqdim etish mobaynida o'zing asosiy maqsadi, "Mijoz bank uchun emas, Bank mijoz uchun" degan missiya asosida faoliyat yuritmoqda.

Buxoro viloyatida mavjud bo'lgan tijorat banklari oldida turgan asosiy vazifalardan biri ham viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish va milliy valyutani barqarorlashtirishdan iboratdir.

Shu munosabat bilan  ATIB Ipoteka Bank faoliyatiga doir tahlillarni amalga oshirdik va bankning mamlakatimiz hamda viloyatimiz iqtisodiyoga qo'shayotgan hissaga baho berishga harakat qildik.

Ipoteka-Bank missiyasi — o'z aksiyadorlari va bank mijozlari uchun eng yuqori darajadagi iqtisodiy qadriyatlarni yaratishdan iborat. Mijozlarga xizmat ko'rsatishning yuqori sifati va tanlangan bozorlardagi yetakchilik, kelajakdagi bank muvaffaqiyati uchun birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bankning korporativ qadriyatlari — jamoaviy ruh, yangicha fikrlash, ijobiy munosabat, ajoyib sifat — bank missiyasini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. [2]

2022 yil davomida bank moliya sohasidagi islohotlarini chuqurlashtirishni davom ettirish va bank xizmatlarini ko'lamini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor davom ettirildi va ushbu islohotlar avvalgilarining uzviy davomi sifatida tadbiq etildi.

2022 yil davomida Bankning korporativ mijozlari bilan munosabatlarni rivojlantirish ishlari davom ettirildi. Korporativ mijozlarga individual yondashuv

taqdim etilayotgan bank xizmat turlarining samaradorligi hamda sifatini oshirish, bank mijoz o'rtasidagi hamkorlikning turli jihatlariga doir muammolar va masalalarni o'z vaqtida hal etishga qaratilgan. Shu bois bank korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish borasida yetakchi mavqeiga ega.

Bank tomonidan aholining va korporativ mijozlarning mablag'larini jalb qilishning sezilarli darajada o'sganligi bankka bo'lgan ishonchning ortganligini ko'rsatadi hamda bank xizmatlari bozorida uning moliyaviy o'rnini mustahkamlaydi.

"Ipoteka bank" ATIB ning asosiy moliyaviy ko'rsatkichlari, 2021 yilga nisbatan 2022 yilda % hisobida.[3]

Yuqoridagi diagrammadan shuni ko'rish mumkinki, "Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyati misolida bank moliyaviy ko'rsatkichlari 2021 yilga nisbatan, 2022 yilga kelib barcha ko'rsatkichlar bo'yicha o'sish kuzatilgan.

2022 yil 1 yanvar holatiga "Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyati filiali hamda Sardor filiallariga qarashli jami 12 ta mini-bank, 2 ta jamg'arma, 14 ta kommunal va 2 ta maxsus kassa, 15 ta xalqaro pul o'tkazmalari shaxobchalari, 4 ta valyuta ayirboshlash shaxobchalari aholi va mijozlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda.[4]




2022 yil 01.01 holatiga ko'ra "Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyati filiallari jami aktivlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,6% ga o'sgan. Ular tarkibidagi daromad keltiruvchi umumiy aktivlarning ulushi, 78% ni tashkil etdi.

Daromad keltirmaydigan aktivlar ulushi esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11% ga o'sgan.

"Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyati filiali faoliyati baholashda yechimini kutayotgan quyidagi masalalarni aniqlandi:

• Viloyatning barcha tumanlarida bank mini banklari va shaxobchalarining mavjud emasligi;

Bankning Vobkent, Buxoro va Gi'jduvon tumanlarida filiallari mavjud bo'lib viloyatning boshqa filialarida ham mini banklar, shaxobchalar va bank filiallarini ochish maqsadga muvofiq bo'lib hisoblanadi.

• Viloyatda bankning valyuta ayriboshlash shaxobchalari sonining kamligi va bayram kunlari esa umuman faoliyat yuritmasligi;

"Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyati filiali tomonidan valyuta ayriboshlash shaxobchalari sonini ko'paytirish bu birinchi navbatda mijozlar sonining oshishiga, ikkinchi tomondan bankning valyuta operatsiyalaridan olinadigan daromadlarining ko'payishiga sabab bo'ladi.

• Bank tomonidan ommaviy axborot vositalarida reklama-targ'ibot ishlarining sustligi;

PR-jamoatchilik bilan aloqalar — bu tashkilot va uning brendlari obro'sini saqlab qolish uchun tashkilotga tegishli ma'lumotlarni ommaga chiqarish va tarqatishni boshqarishning strategik jarayoni hisoblanadi. "Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyati filiali ham PR xizmatlaridan foydalanish kerak. PR xizmatlari bank haqidagi ma'lumotlarni jamoatchilikka turli xil vositalar yordamida yetkazib berish, turli xil ijtimoiy-madaniy va davlat tadbirlarida faol qatnashish, bankning obro'sini ko'tarish hamda shu sohadagi faoliigini oshirishga yordam beradi. [6]

Shu munosabat bilan "Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyati filiali faoliyatini rivojlantirish, o'z oldiga qoygan missiyasini samarali tashkil etish maqsadida quyidagi takliflarni kiritishga harakat qildik:

1. Barcha xaridlar uchun "xush kelibsiz" bonuslari va "cashback"ni o'z ichiga olgan saxiy imtiyozlarga ega yangi bank kartalarni ishga tushirish.

2. Blokcheyn texnologiyasi: Ba'zi banklar moliyaviy operatsiyalarning samaradorligi va xavfsizligini oshirish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanishni o'rganmoqda. Misol uchun, banklar hisoblar o'rtasidagi pul harakatini kuzatish va tekshirish yoki transchegaraviy to'lovlarni osonlashtirish uchun blokcheyndan foydalanishlari mumkin.[7]

3. Raqamli banking: Ko'pgina banklar mijozlarga o'z hisoblariga kirish, to'lovlarni to'lash va smartfon yoki boshqa qurilmalardan tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini beruvchi raqamli platformalar va ilovalarga sarmoya kiritmoqda. Bu, ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida bank filiallariga shaxsan tashrif buyurish cheklangan paytda, ko'pchilik uchun bank faoliyatini yanada qulay va qulay qildi.

4. Sun'iy intellekt (AI): Ba'zi banklar mijozlarga xizmat ko'rsatish va qo'llab-quvvatlashni yaxshilash uchun sun'iy intellektdan foydalanmoqda. Misol uchun, sun'iy intellektga asoslangan chatbotlar mijozlarning oddiy so'rovlarini ko'rib chiqishlari mumkin, bu esa mijozlarga xizmat ko'rsatish vakillarini yanada murakkabroq masalalarga e'tibor qaratishdan ozod qiladi. AI mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilish va shaxsiy moliyaviy maslahatlar berish uchun ham ishlatilishi mumkin. [8]

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.


1. https://cbu.uz/uz/press_center/news/757943/
2. https://www.ipotekabank.uz/uz/about/
3. "Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyat filiali bergan ma'lumotlar asosida
4. "Ipoteka bank"ATIB Buxoro viloyat Sador filiali bergan ma'lumotlar asosida

# O'ZBEKISTONNING IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI

**Olimjonov O. A.**
"Iqtisodiyot" yo'nalishi 4-kurs talabasi
Andijon mashinasozlik instituti

So'nggi yillarda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo'llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil natijalari joylarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, bandlikni ta'minlash, o'z mehnati bilan daromad topish istagida bo'lgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish ishlari talab darajasida emasligini ko'rsatmoqda[1].

Bugungi kunda oziq – ovqat mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanib, bunda oziq - ovqat ekinlari yetishtirish bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlardan kelgusida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni yanada yuksaltirish talab etiladi.

Mehnatkash xalqimizning qadimiy kasb-hunar an'analari, ishbilarmonlik salohiyati oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta tajriba va zaxira mavjudligidan dalolat beradi.

Bu esa o'z o'rnida amaliyotda erishilgan yutuqlar, ilg'or texnologiyalar va xorijiy tajribalardan keng foydalanishga alohida ahamiyat qaratilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yil 7 iyunda qabul qilingan PQ-3777-sonli qarorda mamlakatimizning har bir tuman va shahrida, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og'ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan «Har bir oila — tadbirkor» dasturi amalga joriy etildi. Uning asosiy yo'nalishlari etib tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlash; tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanmagan aholiga tadbirkorlik ko'nikmalarini o'rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil qilishga amaliy yordam ko'rsatish; tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo'shimcha ish o'rinlari yaratish; kasanachilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi sub'ektlarni (mikrofirmalarni) tashkil etish uchun moliyaviy yordam berish orqali aholiga qo'shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish; qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda mazkur sohada ijobiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug'ullanishni boshlagan